

FARIDIDDIN ATTORNING “MANTIQ UT-TAYR” HAMDA
SALOHIYNING “GUL VA BULBUL” ASARLARIDAGI QUSHLAR
TIMSOLINING QIYOSIY TAHLILI

Surayyo Shodiyeva

Ilmiy rahbar: Turon universiteti o'qituvchisi

Mamayusufova Shaxrizoda

Turon universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” nomli tasavvufiy dostonlarda ishtirok etgan qushlar timsolining ramziy ma’no-mazmun kasb etishi aniq dalillar asosida tavsiflangan. Har ikki dostonidagi qushlarning so’fiyona allegoriyasi hamda ijtimoiy ahamiyati asl manbalarga tayanilgan holda o’rganib chiqilib ilmiy xulosalangan. Mazkur maqoladagi tahlil va talqin boshqa shu kabi asarlarni tadqiq etishda amaliy va nazariy yordam beradi.

Kirish so’z: Attor, “Mantiq ut-tayr”, Salohiy, “Gul va Bulbul”, tasavvufiy, so’fiyona, ramziy, Bulbul, Tovus, Kaklik, Humo, Hudhud Qumri, So’fi, To’ti, Foxta, Poklanish, Haq timsoli.

Annotation: In this article, the symbolic meaning of birds in the mystical epics “Mantiq ut-tair” and “Gul va Bulbul” is described on the basis of clear evidence. The Sufi allegory and social significance of the birds in both epics have been studied and scientifically concluded based on the original sources. The analysis and interpretation in this article will provide practical and theoretical help in researching other similar works.

Key words: Attar, “Mantiq ut-tair” Salahi, “Gul va Bulbul” mystical, Sufi, symbolic, Nightingale, Peacock, Cuckoo, Humo, Hudhud, Qumri, Sufi Parrot, Foxta, Purification, Symbol of Truth.

Абстрактный: В данной статье на основе ясных доказательств описано символическое значение символов птиц, участвующих в мистическом эпосе “Мантик ут таир” и “Гуль ва Булбул”. Суфийская аллегория социальное значение птиц в обоих эпосах изучены и научно обоснованы на основе первоисточников. Анализ и интерпретация в этой статье обеспечат практическую и теоретическую поддержку для исследования других подобных работ.

Ключевые слова: Аттар, “Мантик ут-таир”, Салахи, “Гуль ва Булбул”, мистический, символический, Соловей, Павлин, Куропатка, Хумо, Худхуд, Кумри, Суфийский, Попугай, Символ истины, очищения.

Tasavvuf insonni baxt-saodat sari yo‘llovchi, haq yo‘li tomon yetaklovchi va

insonni Alloh taologa yaqinlashtiruvchi ta’limotdir. Tasavvuf yo‘liga kirmoqlik uchun inson o‘z aqliga tayanibgina emas, balki qalban va ruhan uni his qilmog‘i darkor. Tasavvuf tubsiz dengiz kabi va bu dengizni suzib chiqish va uning asl mohiyatini anglash esa har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Tasavvuf haqida yozilgan asarlar bevosita insonni o‘ziga chorlaydi. Ular insonni botiniy va zohiriy pok bo‘lishiga undaydi. Shu ma’nida tasavvufiy asarlarni o‘qish bizning qalbimizni, ong-u tafakkurimizni tubdan o‘zgarib ketishiga o‘zining ijobiy ta’sirlarini ko‘rsatadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tasavvufda o‘z nafsini yenga olgan insongina haqiqiy Haq yo‘liga kira oladi. Nafsni yengmoq esa faqat tildagina osondir. Lekin amalda bajarmoq eng mushkul ishlardan biridir. Zero, insoning o‘z nafsini yengishi, uning o‘zligidan o‘z menidan kechmog‘idir. Bunday asarlar insonni go‘zal xulq-atvorli, pokdil, samimiy, aqlli, iymon-e’tiqodli, tarbiyali va bilimli bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Mazkur asarlar, avvalo, insonni ruhini tarbiya qiladi. Chunki insoning qalbi va ruhi toza hamda pok bo‘lsa, albatta, uning amallari ham pok bo‘ladi. Poklanish o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi.

Birinchisi jismonan poklanish sanalsa, ikkinchisi ruhan poklanishdir. Jismonan poklanish insonning tashqi tomondan yuvinib taranishi bo‘lsa, ruhan poklanishda esa ruh va qalb orqali bo‘ladi. Jumladan, islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karimning sunnatlari va oyatlarini o‘qish, ularni qalb orqali zikr qilish qalban poklanish sari chorlaydi. Alloh yo‘lida har qanday aytilgan so‘zlar, zikr, salovatlar va duo, suralar ham qalbni pok bo‘lishiga xizmat qiladi. Alloh yo‘lida qilingan har qanday urinishlar, harakatlarning barchasi qalb pokligidandir. Qalban va ruhan pok bo‘lgan inson hatto yomonliklardan ham hikmat izlay oladi. Shu sababli ham bu hayotni zohiriy go‘zallik emas, balki botiniy go‘zlallik qutqara oladi. Diniy bilimlarni o‘rganish insonni ruhan pok bo‘lishiga tomon yetaklaydi.

Tasavvufiy asarlarning barchasida ilohiy ishq g‘oyasi ilgari suriladi. Xususan, “Mantiq ut-tayr” asarining asosiy g‘oyasi ham Haq vasliga talabgorlik hisoblanadi. Jumladan, asardagi “Parvonalar va sham” hikoyati bunga yaqqol misol bo‘ladi. Ushbu hikoyat tasavvufni anglashga va Alloh ishq bilan yashamoq lozimligini, uning ishqida yonmoq kerakligiga undovchi hikoyatlardan biridir. “Parvonalar va sham” hikoyatida parvonalar yig‘ilishib, shamni ko‘rish ishtiyoqida birlashadilar, va bitta parvonani sham huzuriga yuborishga ahd qiladilar. Shu maqsadda parvona qasr tomonga yaqinlashib, shula nurlarini ko‘radi, va sham haqida boshqa parvonalariga so‘zlab beradi. Lekin boshqa parvonalar bu gaplardan qoniqmaydilar. Ular sen shamdan ogoh emassan deb boshqa parvonani jo‘natishadi. Boshqa parvona ham shamga yaqinlashib nurni his etadi, va nur ila o‘ynaydi-yu boshqalarga sham visolidan so‘zlaydi. Bu

parvonaning so‘zlari avvalgisi bilan bir xil ekanligini aytishadi. Keyin yana boshqa bir parvona yo‘lga tushadi, u uchib borib to‘g‘ri shamning ustiga borib o‘tiradi. Uning qo‘l-oyog‘i, badani ham olov bilan birlashib ketadi va butun vujudi olovday qizil rangga kiradi. Buni ko‘rgan boshqa bir parvona esa mana bu parvonaning ishq haqiqiy ishqdir. U Haqqa yetdi va o‘zligini ham unutdi degan so‘zlarni aytadi. Bu hikoyadagi sham esa Haq taolo ya‘ni Alloh sanaladi. Insonlar birma-bir Alloh ishqida yonmoqlikda intilishadi. Tasavvuf yo‘li eng mushkul yo‘ldir. Unga har kim ham yaqin borolmaydi. Ikki insoning Alloh ishqida yonganligi haqidagi so‘zlari boshqalarni qoniqtirmaydi.

Tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisi, shoir va mutafakkir Mavlono Jaloliddin Rumiyning bir gaplari bor edi: “Haqiqiy tasavvuf aytmq emas, topmoqdir”. Rumiyning ushbu so‘zlari yuqoridagi hikoyatning, ya‘ni “Parvonalar va sham” hikoyatining asosiy negizini tashkil etadi. Mavlono Jaloliddin Rumi aytgan so‘zlaridan har bir kishi uning ma’nolar dengiziga g‘arq bo‘ladi. Hazrati Rumi hikmatlarining ma’nosini, ularning tub mohiyatini anglamoq uchun yuksak darajadagi bilim va tafakkur kerak bo‘ladi. Bu hikoyat oqali tasavvufning mushkul yo‘lligini va uni anglamoq uchun qalb ko‘zi ochiq bo‘lishi lozimligini anglab yetamiz. Farididdin Attor ushbu hikoyatning so‘ngida quyidagi so‘zlarni keltiradi:

Etmasan kuyida jonigni badar,
Senga janondin nechuk etgay xabar?
Kim senga qildin nishon ko‘rsatgusi,
Jabrini jonga ayon ko‘rsatgusi.
Bul maqomga kimsa maxram bo‘lmadi,
Yetmadi chun unda bir dam bo‘lmadi...

Ushbu baytlarda ifodalanishicha, Haq jamoliga yetishish uchun bir solik bu dunyoning barcha ne‘matlaridan hatto o‘zidan ham voz kechmog‘i kerak. Zero bu yo‘lda o‘z jonini ayagan inson hech qachon Haq vasliga yetisha olmaydi. Chunki bu yo‘lda tun-u kun toat ibodat qilmoq, uning sunnatlariga rioya qilib yashamoq va Alloh taolo ishqidan bahramand bo‘lishi uchun inson, avvalo, o‘z nafsidan voz kechmog‘i lozim. Shu sababli ham Attor o‘z joningni unutmasang, Janondan (Allohdan) xabar topolmaysan deydi, ya‘ni shirin joningni azobga qo‘ymay turib, Haqqa yetishib bo‘lmasligini anglatadi. Bu hayotda ishq, sevgi-muhabbat tuyg‘ulari bor ekan hayot o‘zgacha zavq-u shavq bilan o‘tadi.

Haqiqiy ishq haqida Alisher Navoiy shunday deydi: “Allohg muhabbat izhor qilasanda, unga osiylik ham qilasan va yana muhabbatdan lof urasan... Bu ishing ajabdur. Agar sen muhabbatda sodiq bo‘lsang, Allohg itoat qilasan. Chunki muhib (sevuvchi) mahbubiga, albatta, itoatkor bo‘ladi”. Ilohiy ishq ana shunday ishqdir. Ilohiy ishqni his qilgan, uni ruhan anglab yetgan inson haqiqiy komil

inson sanaladi. Tasavvufning negizi ham ilohiy ishq, Alloh taoloni sevmqlikdir. Jumladan, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” va Salohiyning “Gul va Bulbul” asarlarini o‘qigan har bir inson ikki olamning sir-u sinoatlarini va tasavvufiy ilmlarning asl mohiyatini anglab yetadilar. Ushbu asarlarning bog‘liqlik jihati shundaki, ularning har ikkalasi ham tasavvufiy bo‘lib, ularda Alloh jamoliga yetishmoq kabi eng oliy ruhan yuksaklik sari chorlovchi g‘oyalar ilgari surilganligidandir. “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlari qushlar timsolida yozilgan majoziy poema hisoblanadi. Mazkur asarlarni o‘qir ekanmiz, bevosita ulardagi farqli va o‘xshash jihatlarini kuzatishimiz mumkin. Ushbu ikkala asarda ham bir qancha qushlarning nomlari keltirilgan bo‘lib, ana shu qushlar asarning asosiy qahramonlari hisoblanadi. “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlarida keltirilgan qushlar majoziy shaklda insonlarning timsoli sanaladi. “Mantiq ut-tayr” asarida keltirilgan qushlarning nomlari quyidagicha: Kaklik, Musicha, To‘ti, Qarchig‘ay, Durroj, Bulbul, Tazarv, Qumri, Foxta, Qirg‘iy, Hudhud, Humoy, Burgut, Baliqchi qush, Boyqush, Sa‘va kabilar. “Gul va Bulbul” asarida esa Hudhud Tovus, Humo, Qumri, So‘fi, To‘ti, Kabk, (kaklik) va Foxta kabi obrazlar mavjud. Ikkala asarda ham ba‘zi qushlar ismi, tavsifida o‘xshashlik mavjud. Jumladan, ularga quyidagilar kiradi: Kaklik, Tovus, Hudhud, Qumri, Foxta, Bulbul, To‘ti, Humo kabilardir.

“Mantiq ut-tayr” asarida Hudhud qushlarga yo‘l boshchilik qiladigan pir timsolida tasvirlanadi. Salohiyning “Gul va Bulbul” dostonida esa Hudhud qushi Haq yo‘liga otlangan, inson sifatida tasvirlanadi:

Dedi Hudhud: Meni raxtim balanddur,
Tilimni totligi go‘yoki qanddur.
Muhabbatda bodasini aylagan no’sh,
Fasix ovoz ila sayrardurman jo’sh.
Nafsim karam erur, shirin zabonman,
Ki xushbo‘ylikda mushki zafaronman.
Bu vodiy qushlariga mo‘tabarman,
Haqiqat siridan ham boxabarman.

“Mantiq ut-tayr” asarida pir obrazi bo‘lganidek, “Gul va Bulbul” asarida ham pir timsoli mavjud bo‘lib, u Sabo obrazida namoyon bo‘ladi. “Mantiq ut – tayr” va “Gul va Bulbul” asarlarida ko‘plab o‘xshashliklar mavjud. Ushbu asarlarda qushlar Haq yo‘liga kirmoq uchun yo‘lga otlanadilar, ammo qushlar bu yo‘lning qiyinchiliklariga dosh berolmay yo‘ldan qaytishadi. Haq yo‘liga kirmoq uchun inson, avvalo, irodali zehnli va diniy bilimlarni ruhan anglamog‘i lozim. “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlarida qushlarni Haq tomon yetaklaydigan obrazlar Hudhud va Sabodir. Zero, Haq yo‘liga kirmoqchi bo‘lgan insonga, avvalo, ustoz bo‘lishi kerak. Shu sababli ham ikkala asarlarda yo‘l ko‘rsatuvchi

orif-pir obrazlar keltiriladi. Chunki pirsiz solikning Haq yo‘liga kirmog‘i yana-da mushkuldir. “Mantiq ut-tayr” asarida qushlarning Haq yo‘liga kirmoqchi bo‘lganlari sababi Hudhud ya’ni pir ularga Simurg‘ni tasvirlab bergach, ular ushbu yo‘lga otlanish uchun zavq-shavq bir-la quvonadilar. Hudhud qushlarga Simurg‘ni madh etib, ushbu gaplarni aytishi asarda quyidagicha ifodalangan:

Ibtido Simurg‘ ishiga shul jigar,
Nun yarim chin uzra bo‘ldi jilvapar.
Bitta par tushdin qanotidi xamon,
Tutdi jumla shahri kuylarni suron.
Har kishikim ko‘rdi andin o‘ldin naqsh,
Har kishi bir o‘zga suvrat soldi naqsh.
Shundagi par-boisi hikmat emish,
Chunda ersa, ilm agar urgan yemish.
Bilmasaydi ul pari naqshi ayon,
Bunchalar oshufta bo‘lmasdi jahon.
Barcha suvratlar sifoti baxshidin,
Barcha jonlar ul qanoti naqshidin.
Boshi yo‘qdir vasfining poyoni yo‘q,
Bundan ortiq so‘ylamak imkoni yo‘q.
Endi sirdan kim ersa mardona el,
Yuz buring yo‘lga, bosing mardona ul.

Ushbu misralarda Simurg‘ning sifatlari bayon etiladi. Simurg‘ bir kuni chin mamlakati ustidan uchib o‘tayotganida, undan bir pat yerga tushib qoladi. Simurg‘ning pati tushgan joydan nur yog‘ila boshlaydi. Odamlar quvonib ketishadi, sababiki, agar uning patining naqshi ayon bo‘lmaganida bunchalar g‘avg‘olar bo‘lmas edi.

Salohiyning “Gul va Bulbul” dostonida ham Saboning ya’ni piring Bulbulga Qizil gulni ta’rif etguvchi so‘zlarni aytadi:

Dedi: Ey bulbul maxzuni maxjun,
Sening oting erur olamda mashhur.
Berib gullarga ko‘ngling, lol bo‘lma,
Yamon-u yaxshi qoshida xor bo‘lma.
Chechaklar orasinda bir chechak bor,
Kiroyi ul qilur bo‘lsang griftor.
Oti erur Qizil gul ul chamanda,
Sifotini qilurlar anjumanda.
Yuzimning rangi oning otashidur,
Latofat ichra xadsiz nozanindir.

Ko‘rib turganimizdek, “Gul va Bulbul” asarida ham Qizil gul go‘zal so‘zlar ila

bayon etilmoqda. Sabo Bulbulga boshqa gullarga ko‘nglingni berma degan so‘zlarni aytadi, ya’ni ko‘nglingni majoziy ishq bilan emas, balki ilohiy ishq bilan shod aylagin degan ma’noda keltiriladi. Jumladan, “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” dostonlarida keltirilgan Humo qushining Haq yo‘liga kirmoqdan bosh tortib, aytgan so‘zlari ikkala asarda ham o‘xshash keltirilgan. Humo qushining aytgan so‘zlarini esa Attor o‘zining “Mantiq ut-tayr” asarida ushbu tarzda bayon etilgan:

Dedi: Ey kezuguvchisiz cho‘l-u chaman,
Men shu qushlardek emasman boshqaman.
Himmatim oliy, ayondir barchaga,
Uzlatim eldin bayondin barchaga.
Nafs itin tuprog‘iga qordim bajardim
Topdi mendin izzat Afridinu Jam.
Podsholar topdi mendin parvarish,
Bo‘lmagay tobe gadolar menga esh.
Nafs itin oldiga qo‘ydim ustuvor,
Toki ul jonimga bergay deb omon.
Nafs itiga ustuxon qo‘ydim mudom,
Ul sabab jonimda shul oliy maqom.

Bu misralarda keltirilishicha, Humo qushi barcha qushlarga o‘zini barcha qushlardan ustun ekanligini aytadi. U o‘zini nafs itiga suyak tashlab, shu orqali ruhni bu itdan omonlikda saqlayman deydi. Humo qushining so‘ziga ko‘ra nafsimni yengganman deya o‘zini barcha qushlardan ustun ko‘radi. Aslini olganda esa u nafsini yengmagan inson, aksincha, nafs uni yengan inson timsolidir. Chunki nafsini yenga olgan inson hech qachon barilla: “Men nafsimni yengdim, men barchadan aqlliyoq va ustunroqman” – deya maqtanmaydi. Ushbu Humo qushi timsolida Attor o‘z nafsini yenga olmagan va o‘z nafsining quliga aylangan insonlarni tasvirlaydi. Salohiyning “Gul va Bulbul” asaridagi Humo qushining aytgan so‘zlari ham “Mantiq ut-tayr”dagi Humo qushining aytgan so‘zlari ham mohiyatan bir xildir. “Gul va Bulbul” asarida Humo qushining so‘zlari quyidagicha ifodalangan:

Meni har kim boshig‘a tushsa, soyam.
Jahonga podsho bo‘lgay o‘shal dam,
Jahon xalqi mening soyamga muhtoj.
Ki soyam tushsa boshig‘a kiyar toj,
Humoy soyabaxsh raxnamoman.
Bu vodiyo qushlarig‘a podshohman,
Eshitgil vodiyo shohdurman.
Nechuk hukm aylasam andog‘ qilurman,

Qilib nafsimni maxbus qanoat,
Sitamni ko‘rdim o‘z jonimg‘a rohat.

“Gul va Bulbul” asaridagi Humo qushi ham o‘zini barcha qushlarga shoh ekanligini, uning soyasi kimga tushsa podshoh bo‘lib qolishini aytib, o‘z nafsini yenganligidan da’vo qiladi. U o‘zini podshoh deb aytar ekan, Haq yo‘liga kirishim ham shart emas degan so‘zlarni aytadi. Humo qushi orqali Attor va Salohiy o‘zini barcha insonlardan ustun ko‘radigan kibrli, o‘ta maqtanchoq, irodasiz, iymon-e’tiqodsiz va nafsigaga yengilgan insonlarni yaratadi. Ushbu ikkala asarlarda yana bir qush Tovus ham tasvirlanadi. Ma’lumki, Tovus bu go‘zallik, latofat va nafosat timsolidir. “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlarida Tovusni tasvirlashda uning go‘zalligi va nafisligi haqida so‘z yuritiladi. “Mantiq ut-tayr” asarida Tovusni o‘zidan jilva taratayotgan kelinga qiyoslanadi. Chunki, tovusni tasavvur etadigan bo‘lsak, avvalo, bizning xayolimizga oltin-u gavharlarga burkangan, ko‘zimizni qamashtiradigan darajadagi jilvakorlik namoyon bo‘ladi. “Mantiq ut – tayr” asarida Tovusning so‘zlariga ko‘ra, o‘zining go‘zalligi va shu go‘zalligi bilan ham jannatdan quvilganligi haqida so‘zlaydi. Tovusning jannatdan quvilishiga yagona sabab esa uning bir joyda ilon bilan do‘st tutinganligidir. Shu sababli ham Tovus jannatdan quviladi. U Simurg‘ning men bilan qanchalik ham ishi bor deydi, lekin jannatga yana bir bor kirish umidida ekanligini aytadi. Haq yo‘liga kirmoqlik uchun esa quruq umid qilishdan hech qanday foyda yo‘q. Salohiyning “Gul va Bulbul” asarida ham Tovusning go‘zalligi haqida so‘z boradi. Faqat bu asarda Tovus o‘z go‘zalligi bilan maqtanadi. U o‘zining husniga shu qadar bino qo‘ygan ediki, o‘zini barcha qushlar podshohiman degan so‘zlarni aytadi. Tovus o‘zining adolatli ekanligini va adolat taxti uzra podshohman deya ta’kidlaydi. Mazkur asarlarda Tovusning timsolida o‘zining husn-u jamoliga Alloh tomonidan berilgan go‘zallikka haddan ortiq mahliyo bo‘lib, shu go‘zallik tufayli kibrlanadigan insonlar timsoli badiiy talqin etilgan. Biz Alloh taoloning ojiz bandalari Allohning yaratgan suratiga emas, balki yaratganing o‘ziga mahliyo bo‘lib uning ishqida yonib kuymoqligimiz lozimdir.

Har ikkala asarda yana bir qush To‘ti ham keltiriladi. “Mantiq ut-tayr” asarida to‘tining shirinsuxonligi haqida so‘zlanadi. U so‘zlasa tilidan bol tomadigan uddaburon va zukkolik timsoli sanaladi. Salohiyning “Gul va Bulbul” asarida To‘ti o‘zining shirinso‘zligini, tilidan dur-u gavharlar sochilishini va egnida zangori libos bilan ziynatlanganidan g‘ururlanadi. Ushbu ikkala asarlarda ham To‘tining timsolida shirinso‘zligi, uddaburonligi, aqlliligi va go‘zal liboslari bilan o‘zida o‘zgacha faxr tuyadigan insonlar haqida so‘z yuritiladi va ularning bu ishlari qoralanadi. Ushbu asarlarda Kaklik qushi ham keltiradi-ki, “Mantiq ut-tayr” asarida uning tumshug‘i qizil, qanotlari shafaqday go‘yoki dur konidan

sarmast, mag‘rur ko‘zlari esa qaynoq qon tufayli, qizargandek deya tasvirlanadi. Kaklik har ikkala asarda ham o‘zining dur-u gavharlarga qiyoslaydi. Kaklikning fikricha, dur-u gavharlar har nedan-da ustundir. Aslini olganda dur-u gavharlarning barchasi, oddiy toshdan boshqa hech narsa emas, ularga haddan ortiq ko‘ngil qo‘ymoqlik esa kofirning ishidir. Kaklik o‘zini gavharga qiyoslar ekan, bu ishi bilan o‘zini oddiy toshga qiyoslaydi xolos. Kaklik qushining turli xil oltin, dur-u gavharlarni sevganligi uning butun vujudi ham toshga aylanganligidan dalolat beradi. Zero bu dunyodagi oltin-u gavharlarni sevgan inson hech qachon Alloh ishqida yonmoqlik neligini anglamaydi. “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlarida Kaklik orqali hayotimizdagi oltin, olmos, dur-u gavharlarga mukkasidan ketgan, va Haq taoloni anglab yetmagan, insonlarning timsoli sanaladi.

“Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlaridagi qushlarning timsoli ularning bu yo‘lning mashaqqatlariga bardosh bera olmay, o‘z nafslarining hukmi ila turli xil bahonalar topib aytayotgan so‘zlari va bularga javob berayotgan purning timsoli ham mazkur asarlarda ko‘p jihatdan o‘xshash ekanligini ko‘rib chiqdik. Umuman olganda, maqsad mohiyat bitta – Haq yo‘liga kirmoqlikdir. “Mantiq ut-tayr” asarida Haq tajallisi Simurg‘ qushi bo‘lsa, “Gul va Bulbul” asarida esa Qizil gul timsolida bayon etilgan. “Gul va Bulbul” asarida Bulbulning ya’ni tariqat yo‘liga kirmoqchi bo‘lgan solikning Qizil gulga Haq tajallisiga yetishmoqlik uchun boshidan kechirganlari tasvirlanadi. Bulbul Gul ishqida yonib-kuyib yashaydi. Asarda Bulbulning Gulga bo‘lgan ishq, solikning Alloh taologa bo‘lgan ishqidir. Asar voqeligida Bulbulning gul ishqida yonishi va uning qafasga tushib oh urib jonining chiqishi uning Alloh taologa bo‘lgan ishq ila birlashib ketmog‘idir. Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida qushlarning uzri va bularga Hudhudning javobi va shu javoblarga mos tarzda g‘oyat mahorat bilan yozilgan hikoyatlar qalamga olingan. Attor o‘zining “Mantiq ut-tayr” asarining kitob xotimasida shunday so‘zlarni keltiradi:

Aylading, Attor shu olamga nisor,
Mushki asroringni har dam necha bor.
Cho‘lg‘anib atunga ofoqi jahon,
To‘ldilar shavqingda ushshoqi jahon.
Kel, ishqdin dam urib, ofoq chek,
Goh navoye pardayi ushshoq chek.
Yozganing ushshoqi Haqqa keldi xush,
Har so‘zingdin tushdi shu jonlarga xush.
Senda xatm o‘ldi chunon oftobda nur,
Mantiq ut tayr-u maqomati tuyur.

Xulosa qilib aytganda, Attorning “Mantiq ut-tayr” hamda Salohiyning “Gul va

Bulbul” asarlarining asosiy negizi ham bittadir, ya’ni vahdat ul - vujud sanaladi. Vahdat ul-vujud birlik va Allohni yagonaligiga iymon keltirish hamda u bilan bir butunlikni hosil qilishdir. Qur’oni karimning “Baqara” surasining 82-oyatida shunday soʻzlar keltirilgan: “Iymon keltirib solih amallarni qilganlar esa, aynan ular Jannat ahlidirlar va u yerda abadiy qoluvchilardir”. Yuqoridagi asarlarda esa bu ta’limot badiiy talqinda oʻz aksini topgan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. **www.ziyouz.com** kutubxonasi.
2. Farididdin Attor. Mantiq ut – tayr (she’riy bayon). Forsiydan Jamol Kamol tarjimai. **www.ziyouz.com** kutubxonasi.
3.
aloliddin Rumi. Ma’naviy va Masnaviy (Asqar Mahkam tarjimai) – Toshkent: Sharq nashriyot, 1999.
4.
ison ut-tayr. Alisher Navoiy. **www.ziyouz.com** kutubxonasi.
5.
ur’oni karim. (Abdulaziz Mansur tarjimai). **www.ziyouz.com** kutubxonasi.
6.
alohiy. Gul va Bulbul tasviri. (Tabdil va lugʻatlar muallifi: Surayyo Shodiyeva) – Toshkent: Firdavs -shoh, 2023.